



## O‘QUVCHI SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV-BILUV JARAYONIDA O‘QITUVCHINING FAOLIYATI

**Qodirova N.Z.**

*BuxDPI Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo‘nalishi  
1-kurs magistranti*

**Tayanch so‘zlar:** o‘quv-biluv jarayonini, ijodiy yondashish, bilim, ko‘nikma, malaka, zamonaviy ta’lim jarayoni, pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, творческий подход, знания, умение, квалификация, современный образовательный процесс, педагогические способности, педагогическое мастерство.

**Key words:** educational process, creative approach, knowledge, skill, qualification, modern educational process, pedagogical ability, pedagogical skills.

O‘quv-biluv jarayonini samarali tashkil qilish o‘qituvchining asosiy vazifasidir. O‘qituvchi o‘quvchilarning har biriga alohida shaxs sifatida qarashi, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, istaklari, imkoniyatlarini doimo hisobga olishi, o‘z o‘rnida rag‘batlantira olishi lozim. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagoglar o‘quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, o‘z o‘rnida maqsadli foydalanish;
- o‘quv topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilarga ularni mustaqil tanlash imkonini berish;
- o‘quvchilarni juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta’minlash;
- mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshiladi, balki samaradorligini ham oshiradi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida pedagogik faoliyat samarasi o‘qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga



ham bog‘liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi, deb ta’kidlanadi Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro‘ orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o‘qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o‘z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o‘qib o‘rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o‘z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o‘z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur. O‘qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g‘oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o‘z vazifasiga munosabatiga e’tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o‘qituvchining fikr doirasi keng bo‘lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo‘lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta, fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo‘lishga intilgan kishi, shubhasiz, o‘z bilimini doimo kengaytirishi, o‘z ustida ishlashi, o‘zining o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy ta’sir etuvchi g‘oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko‘p o‘qishi va o‘rganishi lozim. O‘qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta’limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan barcha o‘quv mashg‘ulotlarini mukammal tashkil qilish - o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e’tiqod va mafkuraning, kreativ qobiliyatlari shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchining ilmiy saviyasi uning o‘z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko‘rinadi. O‘qituvchining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg‘ulotlarning sifati belgilaydi.

Dars berish san’atini mukammal egallagan o‘qituvchi uyushtirgan o‘quv mashg‘uloti chuqur bilim berish vositasi bo‘lishi bilan birga, yangi O‘zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalariga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo‘lish uchun qanday harakat qilish kerakligini anglatishi ham kerak.

Eng muhimi, pedagoglar o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishiga e’tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan tahsil oluvchilarning mustaqil fikr bildirishlari (noto‘gri bo‘lsa-da, fikr

bilirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'naltirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

O'quv-biluv jarayonida o'qituvchining faoliyati asosan uchta obyektga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Birinchidan, shaxs sifatida o'qituvchi faoliyatining o'z-o'ziga yo'naltirilganligi. Bunda o'qituvchining :

- «Men» obrazi nazarda tutiladi, ya'ni o'qituvchi o'zining qanday inson ekanligini anglab yetadi. Masalan, «Men juda qattiqqo'lman, shuning uchun bolalarga nisbatan e'tiborli bo'lishim lozim», - singari o'z nuqtai nazariga ega bo'lishi;
- mustaqil bo'lishi, ya'ni u o'z kuchi va bilimiga ishonishi va uni takomillashtirib borishi;
- psixologik va fiziologik salomatligi, o'z-o'zini himoya qila olishi: o'qituvchining darsda his-hayajonlarini bartaraf etishi, darsni yuqori kayfiyat bilan olib borishi, har qanday sharoitda ham asab tolalarini saqlagan holda o'zining tetik holatini buzmasligi;
- o'z qadriga yetishi, ya'ni o'zi va o'z kuchiga ishongan holda mohir o'qituvchi ekanligini anglashi;
- o'z bilim va mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, o'qituvchi faoliyatining boshqa shaxslarga, jumladan, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganligidir. Bunda o'qituvchining:

- o'quvchilarga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishi;
- o'quvchilarning ishonchiga kirishi;
- o'quvchilarga turli xil vaziyatlarda yordam berishi va ularni qo'llashi;
- o'quvchining fikrlarini to'liq yoritishiga sharoit yaratishi;
- o'z qobiliyatlari, imkoniyatlari va o'zligini anglashiga yordam berishi;
- o'quvchilarni boshqara olishi, muloqotga kirisha olishi muhim omillardir.

Uchinchidan, o'qituvchining o'z faoliyatiga yo'naltirilganligi. Bunda o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati jarayonida pedagogik jamoa orasida:

- o'z ijtimoiy mavqeyiga ega bo'lishi;
- o'z tarafdorlariga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va tafakkurini oshirib borib, yangilik sari intilishi;
- samarali natijalarga erishishi;
- o'z faoliyatini samarali tashkil etishi;
- ko'plab tajriba orttirishi;
- ish sharoitini yaratishi;
- ijod etishi talab etiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagoglarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarining o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:



1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi) ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'larini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

3. Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatining mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini ham doimo takomillashtirib borishi zarur. O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak. Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda, bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsiy sifatlarining majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchining yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim. Pedagogik-psixologik bilimga ega o'qituvchi o'quvchi shaxsi, intellekti, qobiliyati va imkoniyatlariga alohida e'tibor beradi.

O'qituvchi har doim o'quvchisining rivojlanish darajasi uning xotirasi, diqqati, irodasi, maqsadga yo'nalganligi kabi shaxsiy sifatleri ustidan nazorat qilib boradi.

Bunda nimaga asoslanadi? O'qituvchi o'z o'quvchisi haqida shoshib yomon fikrga borishi yoki uni ayblashi mumkin emas. Uning bosh vazifasi – o'quvchini barcha ko'rinishlarida o'rganish va tushunishga harakat qilishdir. O'qituvchilik kasbi o'ylamasdan ish ko'rishni kechirmaydi. O'quvchi qalbiga chuqur kirib borish, uning ruhiyati va xarakterini anglab olish mahoratli o'qituvchiga xos bo'lgan xususiyatdir.

Ma'lumki, o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkil qilish darsdagi mos pedagogik-psixologik iqlimning yaratilishiga ham bog'liq. Darsda samarali pedagogik-psixologik muhitni qanday qilib o'rnatish mumkin? Eng avvalo, sinfda o'quvchining xotirjam ishlashi uchun xalaqit beradigan, chalg'itadigan, uni g'ashiga tegadigan barcha narsalarni yo'qotishga harakat qilish kerak. Bundan tashqari, o'quvchini qiziqtirish, rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan sinfni dekorativ bezatish ham ahamiyatlidir.

O'qituvchining o'z o'quvchilari oldiga qo'yadigan talablari ham unda o'quv-biluv qobiliyatlari shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 45 daqiqali o'quv mashg'uloti davomida o'qituvchining o'z o'quvchilariga nisbatan qo'yadigan talablarini oddiy hisoblab chiqilganda, ular o'rtacha 100 ga yaqin ekanligi aniqlangan. Bu ozmi yoki ko'pmi? Bu savolga javob berish uchun A.S.Makarenkoning aytgan gaplarini eslashning o'zi kifoya: "Agar kimdir mendan pedagogik tajribam mohiyatini qisqa formulada ifodalab berishni so'rganida, men shunday javob bergan bo'lar edim: o'quvchiga nisbatan talab qanchalik ko'p bo'lsa, hurmat ham shuncha ko'p bo'lishi kerak". Ammo bu o'rinda gap talablarning sonida emas, balki qanday mazmunda ekanligidir.

Talab qo'yishni qanday qilib o'rganish mumkin? Balki sinfga kirib, o'qituvchilar qanday talab qo'yayotganligini, o'quvchilar esa qanday qilib bajarayotganliklarini kuzatish kerakdir? Ha, albatta bu kerak, busiz bo'lmaydi. Ammo ishni aynan shundan boshlash unchalik to'g'ri emas. Chunki biz guvohi bo'lishimiz mumkin bo'lgan dalillar juda xilma-xil va murakkabdir. Biz avvalo talabning tabiatini, mohiyati va tavsifnomasini bilishimiz kerak bo'ladi. Talab qilish metodikasini puxta egallagan o'qituvchilar o'z talablari bilan, avvalo, o'quvchilarning alohida xatti-harakatlarini stimullashtirib boradilar. Ular kimga qanday talab qo'yishni, o'quvchilar esa o'zlariga nisbatan qanday talab qo'yilishi mumkinligini biladilar va bu talablarni og'rinmay bajarar ekanlar, shunday xulq-atvor uslubiga ko'nikib boradilar. Bu esa bevosita o'quv-biluv jarayonini to'g'ri tashkil qilishga imkon yaratadi.

To'g'ri talab qo'yishning muhim omillaridan biri – bu muayyan pedagogik vaziyatni hisobga olishdir. Ya'ni o'qituvchi u yoki bu talab shaklini tanlaganda o'sha talab qo'yiladigan sharoitni ham inobatga olishi muhimdir. Eng asosiysi



– o‘qituvchining talabi ijobiy, aniq, o‘quvchining kuchi yetadigan va oxiriga yetkaziladigan bo‘lishi kerak.

Barchamizga ma’lumki, ta’lim jarayonida o‘qituvchilar bolaga bilim berishda turli xil rag‘batlantirish va tanbeh usullaridan foydalanishadi. Bu ham o‘qituvchi faoliyatidagi ustuvor vazifalardan biridir. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish yoki kamaytirish rag‘batlantirish va tanbeh berish usullariga bevosita bog‘liqdir. Ta’limda ragbatlantirish va tanbeh berishning qanday turlaridan foydalaniladi?

1. Ta’limga qiziqishni ragbatlantirish metodi.
2. Ta’limga burch va mas’uliyatni rag‘batlantirish metodi.

O‘quv faoliyatini rag‘batlantirish deb kishining aktiv faoliyatiga bo‘lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu sababli rag‘batlantirish o‘qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi. Rag‘batlantirish kishining ichki mayliga ta’sir qilganda real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O‘qishga qiziqishni rag‘batlantirish turlaridan biri o‘qishda ma’lum qiyinchilik sezayotgan o‘quvchilarga muvaffaqiyatli sharoit yaratishdir.

Rag‘batlantirish va tanbeh berish usullari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Rag‘batlantirish: baho bilan, imo - ishora bilan, mukofot bilan amalga oshadi. O‘quvchining kuchi yetadigan mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; maqtash: (ota - ona, jamoa oldida); esdalik sovg‘a berish; maqtov yorlig‘i berish; stipendiya bilan taqdirlash; teleko‘rsatuvlarda maqtash; hurmat taxtasiga rasmini qo‘yish; qo‘llab-quvvatlash; ma’muriyat va jamoaning minnatdorchiligi; musobaqalarda bayroq ko‘tartirish; gazetada e’lon qilish; televideniya ko‘rsatuv uyushtirish kabi rag‘batlantirish pedagogik talab asosida bo‘lishi lozim. Tarbiyalovchi oshirib maqtashi, boshqa o‘quvchi-yoshlarga taqqoslab kesatishga yo‘l qo‘ymasligi, rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanligini oshirish lozim.

O‘qishga doir tanbehlar dars paytida, og‘zaki tanbeh berish, bahosini pasaytirib qo‘yish, ish daftariga yozish, xatolarni ko‘rsatish kabi usullar bilan amalga oshadi. Maktabda o‘quvchiga tan jazosi berish, o‘zlashtirmagani uchun haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so‘kish aslo mumkin emas.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchi qobiliyatini o‘stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish asosiy mezon hisoblanadi. Buni amalga oshirishda o‘qituvchidan innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. V.A.Slastenin o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko‘rishiga olib keladigan subyektiv va obyektiv omillarini asoslab berdi. Obyektiv omillarga olingan ta’limning sifatini, subyektiv omillari esa insonning iste’dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas’uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi.

Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o‘zining o‘shish va takomillashish jarayoni;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o‘qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to‘qnashuvi va o‘zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Unga o‘qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg‘araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘z bilim va ilmiy faoliyatini ta’minlaydigan keng qamrovli mavzu ga ega bo‘ladi.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an‘analarda bo‘lganidek, qistovlar, hukmga bo‘ysunish kabi unsurlardan holi bo‘lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o‘zaro boshqarilishi, o‘zaro yordam shaklida qurilgan bo‘lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o‘qituvchi va o‘quvchining ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funktsiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me‘yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;
- o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.



Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik, yuqori natijaviylik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yorlari sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yorlari - o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik - o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik - o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng, pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Kreativlik lotincha "creation" so'zidan olingan bo'lib, kishining tafakkuri, his-tuyg'ulari, muomalasi va kasbiy faoliyatida ifodalanadigan ijodkorlik qobiliyatini anglatadi. Kreativ kishilar sinchkov, topqir va hali o'rganilmagan narsalarni qidirishdan tolmasligi bilan farq qiladi. Bu sifat zamonaviy pedagog qiyofasini ham yorqin ifodalaydi. Pedagog shaxsining kreativligi nafaqat bolalar ta'lim- tarbiyasiga o'zgacha



metod va yondashuvlarni qidirib topish, balki yangilikka intilish, darslarda ijodiy imkoniyatlarni namoyon etishda ham ko‘rinadi.

Pedagog estetikasi va didi uning atrofidagi barcha narsalarda sinfxonadagi narsa-buyumlardan tortib, o‘qituvchining fanga oid ma’lumotlari, o‘quvchilarni qiziqarli yangiliklardan boxabar qilishigacha namoyon bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y.
2. Tolipov U. “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot” Toshkent, “Fan” 2005 yil , 125 b.
3. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Methods and techniques of developing cognitive activities of primary school pupils //ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. № 10.(7.13.) Стр 80-87. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/1537/943](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1537/943)
4. N.T.Tosheva, M.H. Mustafoyeva Registration of age and individual characteristics in education as a pedagogical problem. European scholar journal ISSN(E): 2660-5562 Jurnal Impact Faktor: 7.235 Volume 2, Issue 4 April 2021.– B. 85- 90 <https://scholar.google.com/citations?user=jJE1SeoAAAAJ&hl=ru&oi=ao>
- 5.N.T.Tosheva, A.M.Ibodullayeva Pedagogical bases of training of qualified pedagogical staff. International Engineering Journal For Research & Development: Vol. 6 No. 3 (2021): VOLUME 6 ISSUE 3 SJIF: 7.169 <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/2228>
6. Тошева Н. Т. Педагогико-психологические подходы к развитию познавательной деятельности учащихся начальной школы //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 44-46.
7. Тошева Н. Т. Организация учебно-познавательных ситуаций начальных классов на основе дидактико-психологических подходов //Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – 2017. – С. 42-46.
8. Тошева Н. Т. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари Fan va jamiyat. – Нукус, 2020. – №2. – Б. 109-111. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/1540/942](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1540/942)
9. Тошева Н. Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў.– Нукус, 2020. – №2. – Б. 126-132. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/1544/941](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1544/941)
10. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // The advanced science open access journal. United states, 2013. №6. . Стр. 83-85.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchining faoliyati, o‘quv-biluv jarayonini samarali tashkil qilishda turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, o‘z o‘rnida maqsadli foydalanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье приведены сведения о деятельности преподавателя в образовательном процессе, ориентированной на личность ученика, эффективном и целенаправленном использовании различных форм, методов, средств и технологий в эффективной организации учебного процесса.

#### SUMMARY

In this article, there is information about the activity of the teacher in the educational process focused on the personality of the student, the effective and purposeful use of various forms, methods, tools and technologies in the effective organization of the educational process. given.